

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING MASHG‘ULOTLAR MILLIY
KLASSIFIKATORINI MEHNAT BOZORIGA JORIY ETISH AMALIYOTI (SAUDIA
ARABISTONI)**

Abbas Uzakbayev

Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi

E-mail: a.uzakbayev@mmtri.uz

Qumar Qalenderova

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: qumarqalenderova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mashg‘ulotlar milliy klassifikatorini mehnat bozoriga joriy etish amaliyoti Saudiya Arabistoni misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatorining (SSCO) ishlab chiqilish jarayoni, uning normativ-huquqiy asoslari, xalqaro standartlar, xususan, Mashg‘ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08), Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-11) va Ta’lim sohalarining xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-13) bilan uyg‘unligi yoritilgan. Shuningdek, klassifikatorning tuzilmasi, ko‘nikma va malaka darajalariga asoslangan ierarxik tasnifi, mehnat bozori, ta’lim tizimi hamda inson resurslarini boshqarishdagi amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Saudiya Arabistoni tajribasi mashg‘ulotlar milliy klassifikatorini ishlab chiqish va uni mehnat bozoriga samarali tatbiq etishda tizimli, ilmiy va institutsional yondashuv muhim ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur modeldan O‘zbekiston sharoitida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: mashg‘ulotlar milliy klassifikatori, mehnat bozori, ISCO-08, ISCED-11, SSCO, malaka va ko‘nikmalar, Saudiya Arabistoni tajribasi.

**PRACTICE OF IMPLEMENTING THE NATIONAL CLASSIFICATION OF
OCCUPATIONS OF DEVELOPED COUNTRIES INTO THE LABOR MARKET (SAUDI
ARABIA)**

Abstract: This article analyzes the practice of implementing a national classification of occupations into the labor market based on the experience of developed countries, using Saudi Arabia as a case study. The study examines the process of developing the Saudi Standard Classification of Occupations (SSCO), its regulatory and legal framework, and its alignment with international standards, particularly the International Standard Classification of Occupations (ISCO-08), the International Standard Classification of Education (ISCED-11), and the International Standard Classification of Education Fields (ISCED-13). In addition, the structure of the classification, its hierarchical framework based on skill and qualification levels, and its practical significance for the labor market, the education system, and human resource management are explored. The findings indicate that the Saudi Arabian experience demonstrates the importance of a systematic, scientific, and institutional approach to the development and effective implementation of a national classification of occupations in the labor market. Based on this model, recommendations for its application under the conditions of Uzbekistan are proposed.

Keywords: national classification of occupations, labor market, ISCO-08, ISCED-11, SSCO, skills and qualifications, Saudi Arabian experience

So‘ngi yillarda Saudiya Arabistoni hududida turli tashkilotlar tomonidan kasbiy va mehnat klassifikatorlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Shuningdek, ko‘plab davlat va xususiy sektorlarda kasblar hamda lavozimlar klassifikatoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan maxsus kasbiy standartlar ishlab chiqildi. Buning natijasida, barcha ushbu tashabbuslarni birlashtirish va yagona keng qamrovli klassifikatorni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu klassifikator – Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatori barcha davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan qabul qilinib, tegishli statistik jarayonlar uchun asosiy ma‘lumotnoma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatori Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan Mashg‘ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasiga (ISCO-08) asoslangan. Mashg‘ulotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar aholini ro‘yxatga olish, so‘rovnomalari va ma‘muriy hujjatlar orqali to‘plangan. Mazkur klassifikator besh darajali klassifikator bo‘lib, mashg‘ulotlarni ierarxik tuzilmada asosiy, o‘rta, kichik va mashg‘ulotlar guruhlariga ajratadi, hamda har bir mashg‘ulotning kodi, nomi va tavsifini o‘z ichiga oladi. Mazkur tizim ishchi kuchining kasbiy tuzilmasiga oid umumiy tushunchani shakllantirish maqsadida mashg‘ulotlar nomlarini ierarxik tuzilmada va o‘xshashlik belgilariga ko‘ra to‘playdi hamda tasniflaydi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatori besh darajali ierarxik tizim bo‘lib, Qirollikdagi barcha kasblarni 433 ta mashg‘ulotlar guruhiga (umumiy tarzda) ajratish imkonini beradi. Ushbu guruhlar klassifikator tuzilmasining eng batafsil darajasini tashkil etib, mashg‘ulot darajasidagi ishlar uchun talab etiladigan ixtisoslashuvga ko‘ra 130 ta kichik guruh, 43 ta o‘rta guruh va 10 ta asosiy guruhga birlashtirilgan. Bunday tuzilma nisbatan batafsil va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ma‘lumotlarni tayyorlash imkonini beradi.

Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatori Qirollikdagi barcha sohalarda mashg‘ulotlar nomlari va ularning tavsiflarini birlashtirish va tasniflash bilan bog‘liq iqtisodiy, ijtimoiy ko‘rsatkichlar va tushunchalarni standartlashtirishdan tashqari, turli mahalliy muassasalar va organlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi va oqimini osonlashtirish kabi bir qator maqsadlarga erishishga qaratilgan.

Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatori aholini ro‘yxatga olish, mehnat resurslari tadqiqotlari, uy xo‘jaliklari so‘rovnomalari, ish beruvchilar so‘rovlari va boshqa manbalardan olingan statistik ma‘lumotlarni to‘plash va e‘lon qilish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari, klassifikator turli tashkilotlar tomonidan o‘z tizimlarida xodimlarni (ishchilar) klassifikatsiyalash, ish izlovchilarni bo‘sh ish o‘rinlari bilan bog‘lash, ta‘limni rejalashtirish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar haqida hisobot berish, xodimlar uchun kompensatsiyalarni boshqarish va mehnat migratsiyasini tartibga solish kabi maqsadlarda foydalaniladi.

Mazkur klassifikatorni ishlab chiqish bo‘yicha dastlabki qadam Saudiya Arabistoni Vazirlar Mahkamasining hijriy 1440-yil Ramazon oyining 16-sanasi (10-may 2019-yil) 540-sonli qarori ikkinchi bandiga asosan Qirollikning Statistika bosh boshqarmasi huzurida Saudiya Arabistoni mashg‘ulotlar standart klassifikatorini ishlab chiqish uchun texnik (ishchi) guruh tashkil etilishi belgilanishi bilan boshlangan. Ushbu texnik guruhga Statistika bosh boshqarmasi, Davlat xizmati vazirligi, Mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligi, Harbiy xizmat kengashi kotibiyati, Milliy axborot

markazi hamda Kadrlar salohiyatini rivojlantirish jamg'armasi vakillaridan iborat mutaxassislar birlashtirilgan va ularning hamkorligida ushbu klassifikator ishlab chiqilgan.

Ishchi guruh tomonidan klassifikator loyihasi quyidagilar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan:

- klassifikator Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) va uning oxirgi yangilanishiga muvofiq bo'lishi;
- klassifikator Arab kasblar standart klassifikatoridan olingan hamda tegishli tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan kasb tavsiflari aks ettirilishi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori Vazirlar Mahkamasining hijriy 1441-yil Shavvol oyining 24-sanasidagi (16-iyun 2020-yil) 660-sonli qarori bilan tasdiqlangan va mazkur qarorda barcha vazirliklar va davlat idoralari klassifikatorni ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n ikki oy ichida o'z ichki tizimlarida joriy etishlari belgilangan.

Klassifikator loyihasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Saudiya Arabistoni Qirolligida qo'llanilayotgan amaldagi milliy klassifikatorlarni (Statistika Bosh boshqarmasi klassifikatori, Mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Arab standart kasblar klassifikatori" va Davlat xizmati vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Davlat sektori lavozimlar klassifikatori") tahlil qilish;
- 2) Uchta klassifikatorni xaritalash va taqqoslash, ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- 3) Tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda "Kasblarning yagona tasniflovchi qo'llanmasi"ni ishlab chiqish;
- 4) Yangi klassifikator tasdiqlangan barcha mashg'ulotlar tavsifini ishlab chiqish.

Loyihada mashg'ulotlarni klassifikatsiyalash jarayoni ish o'rinlarini turli kasblarga bo'lishga qaratilgan keng qamrovli va yaxlit jarayonni o'z ichiga olgan. Ushbu bo'linish ish turini, topshirilgan vazifalarni bajarish usuli va malaka talablarini belgilaydi. Natijada, mashg'ulotlar iyerarxik tarzda asosiy guruhlarga bo'linadi, ular o'z navbatida o'rta guruhlarga, so'ngra kichik, boshlang'ich guruhga ajraladi va nihoyat mashg'ulotlar ro'yxatidagi eng quyi kasbiy bo'linishni ifodalovchi kasblarga borib taqaladi.

Tizimli va ilmiy asoslangan mashg'ulotlar klassifikatsiya tizimiga ega bo'lishning muhimligi bir qator maqsadlar bilan bog'liq bo'lib, ularni Qirollik misolida quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Mehnat bozorida mashg'ulotlarning mavjudligi haqidagi statistik ma'lumotlarni oson, yuqori aniqlik va batafsil darajada to'plash.
2. Mehnat bozori talablarini mavjud kasblar bilan moslashtirish va kamchilik yoki bo'shliqlarni aniqlash.
3. Saudiya Arabistoni mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi farqni qisqartirish maqsadida Ta'lim vazirligi va boshqa kasbiy malakalar uchun mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda rejalar ishlab chiqish.
4. Qirollikning barcha iqtisodiy tarmoqlaridagi davlat va xususiy sektor tashkilotlarining inson resurslari bo'limlari uchun yagona til ta'minlash.

Mamlakatlar milliy darajada kasblarni klassifikatsiyalashning yagona tizimlarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan quyidagi xalqaro standartlarni Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori ham o'z ichiga olgan:

Moslashish. Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori xalqaro klassifikatsiyalash tizimlari va ushbu sohadagi eng ilg'or jahon tajribalariga mos kelishi va ular bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Mantiqiy asos. Klassifikatsiyalash jarayoni o'z maqsadiga muvofiq ravishda mantiqiy tarzda tuzilishi lozim.

Barqarorlik. Qo'llaniladigan yondashuv umumiy va izchil bo'lishi lozim, toki uning qoidalarini muayyan kasblarni klassifikatsiyalash yoki ajratish uchun maxsus ko'rsatmalarga ehtiyoj sezmasdan osonlik bilan qo'llash mumkin bo'lsin.

Keng qamrovlilik. Qo'llaniladigan usul barcha turdagi kasblarni qamrab olishi, aniq ish turlariga batafsil klassifikatsiyalash imkonini berishi va keng qamrovli bo'lishi lozim.

Aniqlik va tushunarlilik. Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori barcha kasblar uchun aniq va batafsil tavsiflarni o'z ichiga olishi lozim.

Foydalanishda qulaylik. Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori uzluksiz foydalanish va yangilanib borishni qulaylashtiruvchi aniq, tavsiyalarni o'zida jamlagan qo'llanmalardan iborat bo'lishi lozim.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorini qayta ko'rib chiqish va undagi kasblar tavsiflarini yangilash vakolati Qirollikning Statistika bosh boshqarmasiga tegishli bo'lib, quyidagi holatlar kasb tavsiflarini yangilash va o'zgartirish zaruriyatini keltirib chiqarishi mumkin:

- kasb tegishli bo'lgan asosiy faoliyat yoki sohadagi yangi ishlanmalar va yutuqlar kasbning maqsadini o'zgartiradigan hamda mehnat vazifalarining mohiyatiga ta'sir ko'rsatadigan;
- kasbga oid texnologiyalardagi sezilarli yutuqlar mehnatni bajarish usuli va xodimning malaka talablarini o'zgartiradigan;
- mehnat sohalari va faoliyat turlarining kesishuvi natijasida ikki yoki undan ortiq kasblarning birlashishi yoki ba'zi kasblarni yanada aniqroq va ixtisoslashgan sohalarga bo'linishini talab qiladigan maxsus rivojlanishlar yuz bergan;
- kasbning xususiyatlari yoki talablariga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar, jumladan, ta'lim malakasi va kompetensiyalardagi yangiliklar.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorini ishlab chiqishda quyidagi metodikalarga asoslanilgan:

- Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) talablari va mezonlariga rioya qilish;
- Mashg'ulotlarni klassifikatsiyalashda ko'nikmaga asoslangan (skill-based) yondashuvga rioya qilish (to'rtta malaka darajasi va ularning ta'riflari bilan);
- Klassifikatsiyalash darajalarini moslashtirish (to'rtta klassifikatsiyalash darajasi mavjud bo'lib, eng yuqori daraja barcha keyingi darajalar uchun malaka darajasini belgilab beradi).
- ISCO-08 da ko'rsatilgan klassifikatsiya darajalari nomlari va ularning miqdoridan foydalanish (shu jumladan, kasblar ro'yxati keltirilgan to'rtinchi darajagacha tarmoqlanuvchi 10 ta asosiy guruhni o'z ichiga olish).
- ISCO-08 bo'yicha kodlash usulini qo'llash va uning mosligini ta'minlash.

Kasb va lavozimlarni nomlashda yagona standartlashtirilgan yondashuvni joriy etish uchun Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorida quyidagi asosiy mezonlar belgilangan:

- 1) Lavozim nomi kasbning malaka darajasini (rahbarlik yoki individual xodim) aniq ko'rsatishi lozim. Bu lavozim tavsifi va yuklatilgan vazifalar mohiyatiga mos bo'lishi va buning evaziga kasb nomi o'qilganda uning mazmuni aniq hamda tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.
- 2) Sarlavhada lavozim nomi, malaka darajasi, toifasi ko'rsatilmasligi yoki muayyan tashkilot yoxud tuzilmaga xos bo'lmasligi lozim.
- 3) Bir xil lavozim nomi bittadan ortiq kasb uchun qo'llanilmasligi shart.
- 4) Lavozim nomi kasbning sifat xususiyatini (tegishli ikkinchi darajali guruh yoki bo'linma bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aloqadorligini) aks ettirishi kerak. Bu kasbning ixtisoslashgan va texnik sohaga aloqador ekanligini bayon etishni osonlashtiradigan tarzda ifodalanishi lozim.
- 5) Lavozim nomi davlat va xususiy sektordagi o'xshash muassasalar, ayniqsa kasbdagi amaliyotchilar va mutaxassislar orasida keng tarqalgan hamda qo'llaniladigan bo'lishi lozim.
- 6) Kasb nomi mahalliy umumiy madaniyatga muvofiq bo'lishi lozim.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorida Kasblarni klassifikatsiyalashda chalkashliklarning oldini olish maqsadida Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasidagi tasnif chegaralari nomlarini aniq va to'g'ri tarjima qilgan holda qo'llashga alohida e'tibor berilgan. Klassifikatsiyalash pog'onasidan "kasbiy guruhlar"ni chiqarib tashlash, bunda kasb pog'onasi faqat aniq kasb nomlari bilangina cheklanishi ta'minlangan. Kasb hisoblanmay, aksincha lavozim vazifalari va topshiriqlarining batafsil taqsimlanishi sifatida qaraladigan bo'linmalar bartaraf etilgan, shuningdek, klassifikatorida Saudiya va xalqaro mehnat bozorlarida paydo bo'layotgan yangi kasblar kiritilishiga katta ahamiyat qaratilgan.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori (SSCO) ko'pincha Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-11) bilan birgalikda qo'llanilib, ta'lim va bandlik tizimlari o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishda foydalaniladi. Bu ta'lim darajalari va turli kasblar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga, shuningdek, ishchi kuchini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori asosiy guruhlari bevosita Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-11) da belgilangan ta'lim darajalariga muvofiq guruhdagi kasblar uchun talab qilinadigan ta'lim darajalari bilan bog'liq. Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori o'z malaka darajalarini mazkur ta'lim darajalariga moslashtirib boradi.

Quyidagi jadvalda malaka darajalari va ko'nikma (skill) darajalari o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-11) tomonidan belgilangan ta'lim darajalarini ko'rsatadi.

Ko'nikma darajasi	Ta'lim darjasi ISCED-11	Ta'lim darjasi deskriptori ISCED-11	SSCO Ta'lim darajasi deskriptori
4	8	Doktorlik yoki unga tenglashtirilgan daraja	Doktorlik darajasi
	7	Magistr yoki unga tenglashtirilgan daraja	Magistr darajasi (kasbiy ta'limni o'z ichiga olgan holda)

	6	Bakalavr yoki unga tenglashtirilgan daraja	Bakalavr darajasi (kasbiy ta'limni o'z ichiga olgan holda)
3	5	Oliy ta'limning qisqa muddatli bosqichi	Diplom
	4	O'rta ta'limdan keyingi oliy bo'lmagan ta'lim	
2	3	O'rta ta'limning ikkinchi bosqichi	Oliy o'rta ta'lim (o'rta maxsus ta'lim)
	2	O'rta ta'limning boshlang'ich bosqichi	O'rta ta'lim (boshlang'ich o'rta ta'lim)
1	1	Boshlang'ich ta'lim	Boshlang'ich ta'lim
	0	Maktabgacha ta'lim	Maktabgacha ta'lim

Ta'lim sohalarining xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-13) bo'yicha ta'lim yo'nalishlari bilan bog'liqligi.

Ta'lim sohalari va tarmoqlar ro'yxatlari Ta'lim sohalarining xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-13)da belgilangan xalqaro standartlarga muvofiq ravishda tayyorlangan.

Ta'lim sohalarining xalqaro standart klassifikatsiyasi uch darajali tizimga asoslanadi: eng yuqori darajada ta'limning keng sohasi, undan keyin tor soha va nihoyat batafsil ta'lim sohalari joylashgan. Saudiya Arabistoni mehnat bozori talablariga javob berish maqsadida, kasblar uchun akademik talablarni ishlab chiqishda aynan shu uchinchi, ya'ni ta'lim sohalarini batafsil tavsiflash darajasiga tayanilgan.

Kod	Keng soha	Kod	Tor soha	Kod	Batafsil soha
08	Qishloq, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va veterinariya	081	Qishloq xo'jaligi	0811	Dehqonchilik va chorvachilik
				0812	Bog'dorchilik
		082	O'rmon xo'jaligi	0821	O'rmon xo'jaligi
		083	Baliqchilik	0831	Baliqchilik
		084	Veterinariya	0841	Veterinariya

Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) bilan bog'liqligi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori (SSCO) Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan ishlab chiqilgan Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) bilan uzviy bog'liqdir. Bu aloqa Saudiya Arabistoni mehnat bozorining o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ikki klassifikator o'rtasidagi muvofqlikni ta'minlashga qaratilgan bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi.

SSCO asosan Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) metodologiyasi va tuzilishiga asoslanib, milliy darajadagi kasb ma'lumotlarini xalqaro darajadagi kasb ma'lumotlari bilan taqqoslash imkoniyatini yaratadi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori "mashg'ulot" tushunchasini ISCO-08 bo'yicha quyidagicha qabul qilgan:

Mashg'ulot – bu ish joyida bajariladigan faoliyat turi bo'lib, asosiy vazifa va majburiyatlari o'zaro o'xshash bo'lgan ishlar (faoliyat) to'plami hisoblanadi.

Xalqaro klassifikatsiyalash mashg'ulotlar va ish o'rinlarini farqlaydi, bunda klassifikatorni ishlab chiqish standartlariga muvofiq ravishda faqat mashg'ulotlarga e'tibor qaratiladi. SSCO ish o'rinlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Muayyan ish beruvchi uchun alohida shaxs tomonidan bajariladigan yoki bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar va majburiyatlar majmui, shu jumladan o'zini-o'zi band qilish ham".

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorini ISCO-08ga muvofiqlashtirish uchun quyidagi 2 bosqichli usuldan foydalanilgan:

1-bosqich. Asosiy guruhlarini aniqlash – mashg'ulotlar ro'yxatidagi guruhlarini belgilash va klassifikatsiyalash jarayonining poydevori hisoblanadi va undan keyin amalga oshiriladigan barcha saralash hamda guruhlash jarayonlari shunga asoslanadi.

Ko'nikma darajasi bo'yicha asosiy guruhlarini aniqlash.

Ko'nikma deganda, mehnat vazifani to'g'ri bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarini ma'lum bir sharoitda qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Ko'nikma darajasi deganda, bajariladigan vazifa va topshiriqlarning murakkabligi va hajmi tushuniladi. Ish uchun talab qilinadigan ko'nikma darajasini aniqlash orqali yuqori darajadagi akademik malakani talab qiladigan nazorat va ixtisoslashtirilgan ishlardan boshlab, yuqori ma'lumotni talab qilmaydigan va bajarish uchun cheklangan miqdordagi amaliy ko'nikmalarni talab qiladigan qo'l mehnati kabi past ko'nikma darajalarigacha bo'lgan asosiy guruhlar aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'nikma darajasiga ko'ra asosiy guruhlar aniqlangach, ko'nikmalar ixtisoslashuvi asosiy guruhlar ichidagi kichik guruhlarini belgilash va klassifikatsiyalash uchun qo'llaniladi. Ko'plab klassifikatsiya tizimlarida klassifikatsiyalash jarayonini muvozanatlashtirish va soddalashtirish maqsadida ba'zi asosiy guruhlarini aniqlashda ko'nikmalar ixtisoslashuvidan (sifatli bo'linish) foydalanish keng tarqalgan. Bunda asosiy tamoyil, ya'ni ushbu guruhlar bir xil malaka darajasini talab qiladigan kasblarni o'z ichiga olishi kerakligi lozim.

Ko'nikmalar darajasi.

Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasida (ISCO-08) qabul qilingan ko'nikma darajalari Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga (ISCED-11) asoslanadi. Quyida ISCO-08da qo'llaniladigan to'rtta asosiy ko'nikma darajasining qisqacha tavsifi keltirilgan:

1-ko'nikma darajasi.

Ushbu daraja oddiy va kundalik qo'l yoki jismoniy mehnatni talab qiladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Bunday ishlarda belkurak kabi qo'l asboblari yoki changyutgich singari oddiy elektr jihozlaridan foydalanish mumkin. Ba'zi hollarda, bu darajadagi ishlarda kerakli malakaga ega bo'lish uchun boshlang'ich yoki asosiy ta'limni tugatish talab etiladi. Ayrim ish o'rinlari esa ish joyida qisqa muddatli o'qitishni talab qilishi mumkin.

2-ko'nikma darajasi.

Mazkur darajadagi mashg'ulotlar mashinalarni boshqarish, transport vositalarini haydash, elektr va mexanik uskunalarga xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash kabi oddiy tartib-qoidalarga asoslangan vazifalarni bajarishni talab qiladi. Ushbu darajadagi kasblarda malakaga ega bo'lish uchun odatda kamida o'rta ma'lumot talab etiladi. Ba'zi ish o'rinlari ish joyida o'qitishni talab qilishi mumkin, ayrim hollarda esa tajriba va amaliy o'qitish rasmiy ta'limning o'rnini bosishi mumkin.

3-ko'nikma darajasi.

Ushbu daraja ixtisoslashgan sohalarda sezilarli darajada amaliy bilimlarni talab qiladigan murakkab texnik va amaliy vazifalarni bajarishni o'z ichiga oluvchi mashg'ulotlarni qamrab oladi. Ushbu darajadagi malaka odatda o'rta ta'limni tugatgandan so'ng bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddat davomida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish orqali egallanadi va odatda bakalavr darajasidan pastroq malakaga to'g'ri keladi.

4-ko'nikma darajasi.

Mazkur daraja murakkab muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini, shuningdek, ixtisoslashgan sohada keng qamrovli nazariy va amaliy bilimlarni qo'llashni talab qiluvchi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Malaka odatda oliy ta'lim muassasalarida uch yildan olti yilgacha o'qish natijasida bakalavr yoki undan yuqori darajaga erishish orqali egallanadi. Ba'zi hollarda, rasmiy ta'limdan tashqari, sohaga oid keng qamrovli tajriba va bevosita ish joyida o'qitish ham talab etilishi mumkin.

2-bosqich. Klassifikatsiyalash chegaralarini (tasniflash guruhlarini) belgilash.

Asosiy va keyingi guruhlarini belgilash.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatoridagi dastlabki to'rt klassifikatsiyalash darajasi ISCO klassifikatsiya chegaralariga mos keladi. Bu moslashish asosiy guruhdan pastroq bo'lgan barcha klassifikatsiya darajalari uchun mashg'ulotlarni sifat guruhlariga (mehnat turi va uning sohalari bo'yicha) guruhlashning bir xil usulini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Yuqorida aytilganidek, asosiy guruhlar ko'nikma darajasiga asosan belgilanadi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori beshinchi va yakuniy darajani, ya'ni mashg'ulot darajasini o'z ichiga oladi.

Klassifikatsiyalash tuzilmasi quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Asosiy guruhlar
2. Klassifikatsiyalash chegaralari, o'rta, kichik, boshlang'ich va mashg'ulotlar guruhlarini
3. Mashg'ulot nomi
4. Texnik va shaxsiy kompetensiyalar

1. Asosiy guruhlar. Mashg'ulotlarning asosiy guruhlarini Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorida, Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) tomonidan xalqaro miqyosda tan olingan to'rtta ko'nikma darajasiga muvofiq belgilangan. Quyidagi jadvalda Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi tomonidan aniqlangan asosiy guruhlar va ko'nikma darajalari ko'rsatilgan:

Kod	Asosiy guruh	Ko'nikma darajasi
1	Rahbarlar	4-3

2	Professional-mutaxassislar	4
3	Mutaxassislar-texniklar va boshqa o'rta maxsus xodimlar	3
4	Xizmatchilar	2
5	Xizmat ko'rsatish va savdo sohasi xodimlari	2
6	Qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va baliq ovlash sohasi malakali xodimlari	2
7	Sanoat, qurilish va turdosh soha malakali ishchilari	2
8	Sanoat uskunalari va dastgohlari yig'uvchilari va operatorlari	2
9	Malakasiz ishchilar	1
0	Harbiy xizmatchilar	1-2-4

2. Klassifikatsiyalash chegaralari, o'rta, kichik, boshlang'ich va mashg'ulotlar guruhлари.

Asosiy guruhdan keyingi barcha darajalar uchun klassifikatsiyalash pog'onalarini aniqlash kichik guruhlarda bajariladigan ishlarning turiga (ko'nikmalar ixtisoslashuvga) asoslanadi. Chunki ixtisoslashuv bo'linishi ikkinchi pog'onadan boshlab eng quyi darajagacha (ya'ni boshlang'ich guruhdan mashg'ulot guruhigacha) davom etadi. Shuningdek, muvozanat, izchillik va umumlashtirish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida asosiy guruhlarini ham ixtisoslashuv bo'yicha belgilash mumkin. Biroq bu holda asosiy guruh uchun bitta ko'nikma darajasini aniqlash shart (Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasiga ko'ra, har bir guruh faqat bitta ko'nikma darajasiga ega, faqat Rahbarlar asosiy guruhidagi bitta kichik guruh va Harbiy xizmatchilar guruhi bundan mustasno).

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorida beshinchi daraja quyidagi xususiyatlarga ega:

Mashg'ulot – asosiy vazifalari va majburiyatlari o'xshash bo'lgan ishlar guruhi sifatida ta'riflanadi. Bunda vazifalar tavsifi barcha sohalarning turli subyektlari tomonidan batafsil ishlarni aniqlash uchun yetarli darajada keng qamrovli bo'lishi lozim. Kasbiy tavsif mutaxassislar bajarishi kerak bo'lgan minimal talablarni belgilaydi. Bu talablar ta'lim darajasi, ta'lim yo'nalishlari namunalari, texnik va shaxsiy ko'nikmalar kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Mashg'ulotlar ish mazmuni, akademik ta'lim darajasi va turi jihatidan o'xshash bo'lishi mumkin, biroq talab etiladigan vazifa va majburiyatlarning mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi:

– ba'zi mashg'ulotlar ish mazmuni, umumiy vazifa va majburiyatlari, ta'lim darajasi hamda turi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular bitta umumiy kasbga birlashtiriladi.

– keng qamrovli tamoyilga rioya qilindi, bu bir nechta o'xshash kasblarni o'z ichiga oladi. Ixtisoslashuv zarurati ortganda va kasblar o'rtasidagi farqlar ish bajarish usulida namoyon bo'lganda esa tor qamrovli yondashuv qo'llaniladi.

– kasblarni, lavozimlarni yoki har qanday tashkilotning turli tuzilmalarini klassifikatsiyalashda ish darajalari e'tiborga olinmaydi.

3. Mashg'ulot nomi. Mashg'ulot nomlari asosan ish turini aks ettirib, kasb va lavozimning mohiyatini aniq ko'rsatadi. Bu esa barcha ish beruvchilarga o'z faoliyatlariga mos keladigan kasblarni belgilashda yordam beradi.

4. Texnik va shaxsiy kompetensiyalar. Ushbu bosqichda texnik va shaxsiy kompetensiyalar – xalqaro eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq belgilanadi. Milliy kasb klassifikatsiyalariga texnik kompetensiyalarni birlashtirish Yevropa ko'nikmalari, kompetensiyalari, malaka va kasblari (ESCO) tizimiga asoslanadi. Bu tizim kasblar darajasida texnik kompetensiyalarni shakllantirishda tayanish mumkin bo'lgan eng ishonchli global manbalardan biri hisoblanadi. Bunda ESCO standartining yaxlit va umumiy xususiyatga ega ekanligi e'tiborga olinadi.

Shaxsiy kompetensiyalar – shaxsiy kompetensiyalar doirasi xalqaro ilg'or tajribalarga muvofiq ravishda ishlab chiqildi.

Quyidagi jadvalda Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi va Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori o'rtasidagi moslik ko'rsatilgan:

Klassifikatsiya toifalari	Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi ISCO-08	Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori SSCO
Asosiy guruh	10	10
O'rta guruh	43	43
Kichik guruh	130	130
Boshlang'ich guruh	436	433
Mashg'ulot guruhi	-	2122

– 10 ta asosiy guruhlar Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi ISCO-08 bilan bir xil;
 – asosiy guruh aniq bajariladigan ish turlarini emas, balki juda keng ish sohasini ifodalaydi. O'nta asosiy guruh mavjud bo'lib, ularning har biri 0 dan 9 gacha bo'lgan bitta raqam bilan belgilanadi;
 – 43 ta o'rta guruhlar Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi ISCO-08 bilan bir xil;
 – asosiy guruhlar ichidagi o'rta guruhlar umumiy ish sohasiga ko'ra bo'lingan kichik bo'limlardir;
 – 130 ta kichik guruhlar Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi ISCO-08 bilan bir xil;
 – kichik guruhlar – bu ish turlarining kichik sohasiga ko'ra bo'lingan o'rta guruhlar ichidagi yanada kichikroq bo'linmalardir.

– 433 ta boshlang'ich guruh Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi ISCO-08 guruhlaridan 3 taga kam;

Ular kichik guruhlar bo'limlaridir. Ularning klassifikatsiyasi kichik guruhlardagiga nisbatan aniqroq va batafsilliroq bo'lib, ixtisoslashgan ish turlarini bevosita ko'rsatib beradi.

– 2122 ta mashg'ulot guruhi – Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorining beshinchi darajasi;

Ular boshlang'ich guruhlar bo'limlari bo'lib, Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorining eng batafsil pog'onasini tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatoridagi klassifikatsiyalash chegaralari statistikasi va unga kiritilgan mashg'ulotlar soni ko'rsatilgan:

Asosiy guruh kodi	Asosiy guruh	O'rta guruh	Kichik guruh	Boshlang'ich guruh	Mashg'ulot guruhi
1	Rahbarlar	4	11	31	325
2	Professional-mutaxassislar	6	27	92	692
3	Mutaxassislar-texniklar va boshqa o'rta maxsus xodimlar	5	20	84	383
4	Xizmatchilar	4	8	27	54
5	Xizmat ko'rsatish va savdo sohasi xodimlari	4	13	39	117
6	Qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va baliq ovlash sohasi malakali xodimlari	3	9	18	54
7	Sanoat, qurilish va turdosh soha malakali ishchilari	5	14	66	180
8	Sanoat uskunalari va dastgohlari yig'uvchilari va operatorlari	3	14	40	219
9	Malakasiz ishchilar	6	11	33	80
0	Harbiy xizmatchilar	3	3	3	18
Jami		43	130	433	2122

Mashg'ulot tavsifi har qanday kasbiy yoki lavozim klassifikatsiyasi tizimini ishlab chiqishning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki mashg'ulot tushunchasini bajarilayotgan ish turi va asosiy vazifalarni tavsiflamasdan to'liq anglash mumkin emas. Bu tavsifar klassifikatordan foydalanuvchi tashkilotlarning talablariga ko'ra, qaysi aniq ishlar yoki majburiyatlar mazkur mashg'ulotga kirishini aniqlashga yordam beradi. Lavozim nomlari kasb haqida umumiy tasavvur bersa, kasbning batafsil tavsifi ushbu lavozimda ishlovchi shaxslar uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar to'g'risida aniq ma'lumot taqdim etadi.

Ushbu tamoillarga asosan, Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorida yuqori darajadagi umumiylik va keng qamrovlilik bilan ajralib turadigan mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan hamda ilgari ta'riflangan kasblarning mohiyatini aks ettiruvchi mashg'ulotlar tavsiflari ishlab chiqilgan.

Klassifikatordagi mashg'ulotlar ro'yxati uchun tavsiflar xalqaro ilg'or tajribasiga muvofiq umumiy tamoyillar va standartlarga asosan ishlab chiqilgan, xususan:

- ishlab chiqilgan mashg'ulot tavsiflari umumiy tarzda tuzilgan bo'lib, turli tashkilotlarga ularni o'z ehtiyojlariga moslashtirib olish imkonini beradi;
- asosiy vazifa va majburiyatlar kabi muhim qismlarni tuzishda to'g'ri va tegishli arab tilidan foydalanish;
- jumlar tavsiflanayotgan mashg'ulotning mohiyatiga mos keladigan fe'lning infinitiv shakli bilan tugatish;

- barcha manfaatdor tomonlar uchun tushunish oson va aniq bo'lishi maqsadida, turli xil ma'nolarga ega bo'lgan texnik atamalar, jargonlar yoki iboralardan, shuningdek qisqartmalardan foydalanishni cheklash;
- mashg'ulotlarni tavsiflashda jinsga ishora qilimaslik (faqat ayollar uchun maxsus mo'ljallangan mashg'ulotlar bundan mustasno);
- mashg'ulot tavsiflarini ishlab chiqishda zamonaviy inson resurslarini boshqarish usullarining qo'llanilishini ta'minlash;
- Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatorida kasblarni kelajakda yangilash va rivojlantirish maqsadida mashg'ulot tavsiflariga oid asosiy tartib-qoidalar va jarayonlarni standartlashtirish hamda yagona tizimga keltirish;
- mashg'ulotga oid umumiy tushunchani yagona qilish va mashg'ulot nomini turli qarashlar asosida har xil talqin etilishining oldini olish.

Mashg'ulot tavsifi kartasini ishlab chiqish va kasb egalarida bo'lishi lozim bo'lgan talablarni aniqlash maqsadida quyidagi parametrlar o'rnatilgan:

- Klassifikatsiya ma'lumotlari.
- Mashg'ulot nomi.
- Mashg'ulot kodi.
- Mashg'ulot ta'rifi: Mashg'ulotning mohiyati haqida eng ko'pi bilan ikki yoki uch jumla. Foydalanuvchi faqat ushbu qismni o'qib, mashg'ulotning asosiy maqsadi va vazifalarini tushunib olishi lozim.
- Mashg'ulotning asosiy vazifalari: Beshtagacha batafsil vazifa aniqlanadi. Ushbu asosiy vazifalarning tavsifi mashg'ulot tavsiflarini ishlab chiqish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga muvofiq bo'lishi lozim.
- Minimal ta'lim darajasi: Kasbni egallash uchun minimal ta'lim darajasi ko'rsatiladi.
- Ta'lim sohasi: Kasbga mos keladigan uchtagacha ta'lim sohasi belgilanadi.
- Shaxsiy kompetensiyalar: Beshtagacha kompetensiya belgilanadi.
- Texnik kompetensiyalar: Beshtagacha kompetensiya belgilanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning mashg'ulotlar milliy klassifikatorini mehnat bozoriga joriy etish amaliyotini tahlil qilish (Saudiya Arabistoni) yuzasidan o'tkazilgan mazkur tadqiqot ishi va o'rganishlar yakuni bo'yicha Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori ishlab chiqilishi va mehnat bozoriga joriy etilishida katta tizimli ishlar olib borilganligi aniqlandi. Mazkur tizimli qadamlar quyida 5 ta asosiy bosqichga ajratilgan holda taqdim etiladi:

1. Normativ-huquqiy asosning aniq belgilanganligi.

Saudiya Arabistoni Vazirlar Mahkamasining hijriy 1440-yil Ramazon oyining 16-sanasi (10-may 2019-yil) 540-sonli qarori ikkinchi bandiga asosan klassifikatorni ishlab chiqish vazifasi belgilanganligi va Vazirlar Mahkamasining hijriy 1441-yil Shavvol oyining 24-sanasi (16-iyun 2020-yil) 660-sonli qarori bilan klassifikator tasdiqlanganligi va mazkur qarorda barcha vazirliklar va davlat idoralari klassifikatorni ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n ikki oy ichida o'z ichki tizimlarida joriy etishlari belgilanganligini alohida ta'kidlash mumkin. Mazkur normalar klassifikatorning milliy mehnat bozorida to'siqlarsiz va qisqa muddatlarda tatbiq etilishida katta ahamiyat kasb etgan.

2. Xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilganligi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCO-08) tizimiga asosan ishlab chiqilgan. Bu nafaqat milliy mehnat bozorida kasblar, balki mintaqaviy va xalqaro mehnat migratsiyasida tan olinadigan kasblarni joriy etishni ta'minlaydi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-11) va Ta'lim sohalarining xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-13) bilan ham uyg'unlashtirilgan.

3. Klassifikator loyihasini ishlab chiqishda mehnat bozori tahlili o'tkazilishi va soha mutaxassislarining jalb qilinishi.

Loyiha Qirollikning Statistika bosh boshqarmasi, Davlat xizmati vazirligi, Mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligi, Harbiy xizmat kengashi kotibiyati, Milliy axborot markazi hamda Kadrlar salohiyatini rivojlantirish jamg'armasi vakillaridan iborat mutaxassislardan tuzilgan ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan va mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish, so'rovnomalar va ma'muriy hujjatlar orqali to'plangan. Bu o'z navbatida loyihaning real ehtiyojlarga muvofiq ishlab chiqilishini ta'minlab, mehnat bozorida keng tatbiq etilishiga katta zamin yaratadi.

4. Ta'lim tizimi bilan integratsiya ta'minlanganligi.

Klassifikatorni ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida loyihada Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-11) va Ta'lim sohalarining xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-13) talablari ham inobatga olingan. Bu ta'lim darajalari va turli kasblar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga, shuningdek, ishchi kuchini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Axborot tiziminining ishlab chiqilganligi.

Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatori elektron platforma (onlayn ma'lumotlar bazasi) shaklida Qirollikning Statistika bosh boshqarmasi rasmiy veb-sayti orqali taqdim etilishi klassifikatordan foydalanuvchilar sonining ortishi va foydalanuvchilar uchun katta qulayliklar yaratishni ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur veb-saytda klassifikatordan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar ham taqdim etilgan. Saudiya Arabistoni mashg'ulotlar standart klassifikatoriga havola: <https://www.stats.gov.sa/en/w/saudi-standard-classification-of-occupations?id=2813173>
Yuqorida keltirilgan 5 ta bosqichga asosan ishlab chiqilgan tajriba modelidan O'zbekiston sharoitida mashg'ulotlar milliy klassifikatorini mehnat bozoriga joriy etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Continuing Education as a Condition for Increasing Specialists' Competitiveness in the Labor Market. Integration of Education. Tuguskina G.N., Rozhkova L.V., Naydenova L.I., Supikov V.N., Seidov Sh.G. 2022;26(1):111–129. (In Russ., abstract in Eng.) <https://doi.org/10.15507/1991-9468.106.026.202201.111-129>
2. ESCO Publications. (2022). Machine Learning Assisted Mapping of Multilingual Occupational Data to ESCO. European Commission. European Commission. (2022). The crosswalk between ESCO and ONET: Technical Report. Retrieved from <https://esco.ec.europa.eu/en/about-esco/publications/publication/machinelearning-assisted-mapping-multilingual-occupational>
3. ESCOXML-R: Multilingual Taxonomy-driven Pretraining for the Job Market Domain. arXiv, 2305.12092. Zhang, M., Goot, R. v., & Plank, B. (2023).
4. KSA Occupations Review 2023. Version 1.0. National Labor Observatory
5. National Occupational Standard Framework for Data & Artificial Intelligence. Saudi Data & AI Authority

6. Procedural Manual for the Saudization Resolution of Technical Engineering Professions. Issued by Ministerial resolution No. 103105 dated 26/01/2025 AD
7. Review of resampling techniques for the treatment of imbalanced industrial data classification in equipment condition monitoring. *Engineering Applications of Artificial Intelligence*, 126, 106911. Yuan, Y., Wei, J., Huang, H., Jiao, W., Wang, J., & Chen, H. (2023). doi:doi.org/10.1016/j.engappai.2023.106911
8. The Guiding Manual for the Saudi Unified Classification of Occupations 2025. General Authority for Statistics.
9. Tjildens, K. (2015). Self-identification of occupation in web surveys: requirements. *Survey Insights: Methods from the Field*. doi:10.13094/SMIF-2015-00008
10. Научная политика Саудовской Аравии: ученый интернационал как опора развития Тюкаева Т.И. //Сравнительная политика. – 2016. – № 3. – С. 146-161. DOI: 10.18611/2221-3279-2016-7-3(24)-146-161.
11. Правовое регулирование взаимного признания профессиональных квалификаций государствами – членами Европейского Союза. Заплатаина, Татьяна С. 2018. Дис. ... канд. юрид. наук. Москва.
12. Профессиональное образование и обучение работников (персонала): правовые основы. Петров, Алексей Я. 2019. Учебное пособие для академического бакалавриата. Москва: Юрайт
13. Современные тренды в системе адаптации персонала. Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами в России. Каштанова Е.В., Лобачева А.С. 2022;11(1):29–35. <https://doi.org/10.12737/2305-7807-2022-11-1-29-35>